77. (2019) 0,2 mol alkil radikali tarkibidagi proton, elektron va neytronlar yig'indisi $18 \cdot N_A$ ga teng bo'lsa, radikalni aniqlang.
A) butil B) pentil C) geksil D) heptil
78. (2019) Noma'lum alkilyodid va yetarli miqdordagi natriy metali o'rtasida boradigan reaksiya tenglamasining o'ng va chap tomonidagi atomlar yig'indisi 36 ga teng bo'lsa, reaksiyadan hosil bo'lgan alkanni aniqlang.
A) oktan B) butan C) geksan D) etan
79. (2019) Vyurs reaksiyasi bo'yicha 1 moldan olingan metil va etilxloridlar aralashmasiga mo'l miqdordagi natriy metali ta'sir ettirilganda 13,2 g propan olingan bo'lsa, necha litr (n.sh.) etan hosil bo'lgan?
A) 8,96 B) 7,84 C) 15,68 D) 6,72
80. (2019) 11,2 litr (n.sh.) metan xlorlanishi natijasida trixlorometan va tetraxlorometandan iborat 70,1 g aralashma hosil bo'ldi. Reaksiya uchun sarflangan xlor miqdorini (mol) aniqlang. [$M(CHCl_3) = 119,5$ g/mol]
A) 1,8 B) 1,6 C) 1,9 D) 1,5
81. (2019) Ekvimolar nisbatda olingan alkan va is gazidan iborat 14,4 g aralashma yondirilganda 0,8 mol karbonat anhidrid ajraldi. Alkanni aniqlang.
A) butan B) etan C) metan D) propan

82. (2019) Ekvimolar nisbatda olingan alkan va is gazidan iborat 0,6 mol aralashma yondirilganda 1,5 mol karbonat anhidrid ajraldi. Alkanni aniqlang.
A) butan B) metan
C) propan D) etan
83. (2019) Metan gomologi tarkibida qutbsiz bog'lar soni qutbli bog'lar sonidan 8 taga kam bo'lsa, 3,36 litr (n.sh) shunday uglevodorodni yoqish uchun qancha hajm (l, n.sh) havo kerak? ($\varphi(O_2) = 0,2$)
A) 100,8 B) 123,2 C) 112 D) 134,4
84. (2019) 81 g etan va propan aralashmasi yetarli kislorod bilan to'liq yondirildi. Olingan mahsulotlar tarkibidagi atomlarning umumiy soni $39 \cdot N_A$ dona bo'lsa dastlabki aralashmadagi etanning massasini (g) aniqlang.
A) 9 B) 15 C) 30 D) 66
85. (2019) Ma'lum hajmli alkanga o'z hajmidan 5 marta ko'p azot va kislorod aralashmasi ($M_{\text{ort}} = 29,6$ g/mol) qo'shildi. Alkan va kislorod to'liq reaksiyaga kirishgan bo'lsa, alkanni aniqlang. (barcha o'lichashlar n.sh. da amalga oshirilgan).
A) propan B) butan C) metan D) etan
86. (2019) Ekvimolar nisbatda olingan ikki xil alkilgalo-genidlar aralashmasining natriy metali bilan reaksiyasidan 0,6 mol alkanlar aralashmasi va 123,6 g tuz hosil bo'ldi. Galogenni aniqlang.
A) fluor B) xlor C) yod D) brom
87. (2019) CH_3COOK va mo'l miqdordagi KOH dan iborat 49 g aralashma qizdirilib, hosil bo'lgan gaz (hv ishtirokida) bromlandi. Natijada 50 % unum bilan 25,3 g tribrommetan olingan bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi $\omega(KOH)$ ni toping.
A) 0,6 B) 0,8 C) 0,7 D) 0,5
88. (2019) 8,7 g alkan mo'l kislorodda yondirilib, ajralgan gaz natriy gidroksid eritmasidan o'tkazildi. Natijada 33,6 g nordon va 21,2 g o'rta tuz olingan bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) CH_4 B) C_2H_6 C) C_4H_{10} D) C_3H_8
89. (2019) 11,6 g alkan mo'l kislorodda yondirilib, ajralgan gaz natriy gidroksid eritmasidan o'tkazildi. Natijada 42 g nordon va 31,8 g o'rta tuz olingan bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) C_2H_6 B) C_4H_{10} C) CH_4 D) C_3H_8
90. (2019) 11,2 litr (n.sh.) metan, is gazi va karbonat anhidrididan iborat gazlar aralashmasi mo'l ishqor eritmasidan o'tkazilganda gazlar hajmi $5/3$ marta kamaydi. Qolgan gazlarni yoqish uchun 6,72 litr (n.sh.) kislorod sarflansa, boshlang'ich aralashmadagi alkaning hajmiy ulushini (%) toping.
A) 10 B) 20 C) 40 D) 30
91. (2019) Propan kislorodda to'liq yondirilganda massasi 61,2 g bo'lgan 1,5 mol is gazi va karbonat anhidrididan iborat gazlar hosil bo'ldi. Propaning qancha qismi CO_2 hosil qilganligini hisoblang.
A) $1/4$ B) $3/4$ C) $4/5$ D) $1/5$
92. (2018) Quyidagi alkanni nomlang.
 $(CH_3)_2CCH_2C(C_2H_5)_2CH_2CH(CH_3)CH_2C(CH_3)_3$
A) 2,2,6,8,8-pentametil-5,6-dietilnonan
B) 2,6,6,8,8-pentametil-4,4-dietilnonan
C) 2,2,4,8,8-pentametil-6,6-dietilnonan
D) 2,2,6,8,8-pentametil-4,4-dietilnonan
93. (2018) 2-brombutanga Na metali ta'sir ettirib olingan alkan tarkibidagi birlamchi C atom(lar) i sonini aniqlang.
A) 1 B) 5 C) 4 D) 3
94. (2018) Ushbu $(CH_3)_3CCH(CH_3)_2$ uglevodorodda nechta birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi uglerod atomlari mavjud?
A) 5,1,1,0 B) 4,0,2,1 C) 5,1,0,1 D) 5,0,1,1
95. (2018) Noma'lum alkan yondirilganda 9 g suv hosil bo'ldi. Shunday miqdordagi (mol) alken yondirilganda 17,6 g karbonat anhidrid hosil bo'ldi. Agar alkan va alken tarkibidagi uglerod atomlari soni teng bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) C_4H_8 B) C_5H_{10} C) C_2H_4 D) C_3H_6
96. (2018) Stexiometrik nisbatda olingan alkan va kisloroddan iborat aralashma portlatildi. Suv bug'i kondensatlangandan keyin bosim 50% ga kamaygan bo'lsa, alkanni aniqlang. ($V = \text{const}$. $T = \text{const}$)
A) etan B) metan C) propan D) butan
- 97.99. (2017) Quyidagi qaysi moddalar propan bilan reaksiyaga kirishadi?
A) Cl_2 , HBr , O_2
B) O_2 , CH_3COOH , N_2
C) HNO_3 , O_2 , CH_3COOH
D) Cl_2 , O_2 , HNO_3
98. (2017) Geksan molekulasida nechta sp^3 -gibrid orbitalari mavjud?
A) 24 B) 18 C) 16 D) 20
99. (2017) Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi vodorod atomlari massasidan (m.a.b.) 36 m.a.b. ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) propan B) etan C) butan D) pentan
100. (2017) Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b.) 20 m.a.b. ga ortiq bo'lsa alkanni aniqlang.
A) butan B) propan C) pentan D) etan
101. (2017) 10 m³ pentanning yonishi uchun qancha (m_3) havo kerak bo'ladi. (Kislorodning havodagi hajmiy ulushi 20%)
A) 240 B) 160 C) 320 D) 400
102. (2016) Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi vodorod atomlari massasidan (m.a.b.) 48 m.a.b. ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) etan B) pentan C) propan D) butan
103. (2015) 0,5 mol metandagi atomlar soniga teng sonda vodorod atomlari tutgan C_4H_{10} molekullari sonini toping.
A) $4,5 \cdot 10^{23}$ B) $3,01 \cdot 10^{23}$
C) $1,505 \cdot 10^{23}$ D) $6,02 \cdot 10^{23}$
104. (2015) Alkan molekulasidagi protonlar sonini topish formulasini ko'rsating.
A) $N = 6n + 2$ B) $N = 6n - 2$
C) $N = 2n + 2$ D) $N = 8n + 2$
105. (2015) Alkandagi C - H bog'lar soni C - C bog'lari sonidan 4 marta ko'p bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) C_5H_8 B) CH_4 C) C_4H_{10} D) C_2H_6
106. (2015) 41,42 g brommetan olish uchun ($\eta = 0,8$) qancha gr alkan kerak bo'ladi?
A) 5,58 B) 8,72 C) 14,25 D) 9,12

- 107.(2015) Alkan tetraxlorlanganda hosil bo'lgan aralashma bug'ining gelyga nisbatan zichligi 15,7 ga teng bo'lsa, alkanni toping. (alkan va xlor to'liq reaksiyaga kirishgan)
A) C_3H_8 B) CH_4 C) C_2H_6 D) C_4H_{10}
- 108.(2015) Alkan tetraxlorlanganda hosil bo'lgan aralashma bug'ining vodorodga nisbatan zichligi 32,8 ga teng bo'lsa, dastlabki alkan tarkibida nechta sp^3 -s-gibridlangan orbitallar bor? (alkan va xlor to'liq reaksiyaga kirishgan)
A) 4 B) 10 C) 8 D) 6
- 109.(2015) Alkan tetraxlorlanganda hosil bo'lgan aralashma bug'ining vodorodga nisbatan zichligi 32,8 ga teng bo'lsa, dastlabki alkan tarkibida nechta sp^3 -gibridlangan orbitallar bor? : (alkan va xlor to'liq reaksiyaga kirishgan)
A) 12 B) 16 C) 4 D) 8
- 110.(2015) To'yingan uglevodorod yonishi natijasida hosil bo'lgan suvning massasi boshlang'ich uglevodorod massasidan 1,5 marta ko'p bo'lsa, uglevodorodni toping.
A) butan B) etan
C) propan D) pentan
- 111.(2015) To'yingan uglevodorod yonishi natijasida hosil bo'lgan suvning massasi boshlang'ich uglevodorod massasidan 1,5 marta ko'p bo'lsa, ushbu uglevodorodning jami izomerlaridagi birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, to'rtlamchi C atomlari sonini aniqlang.
A) 15 B) 8 C) 10 D) 12
- 112.(2015) Massasi 3,6 g bo'lgan alkanning yonishidan 5,6 litr (n.sh.) CO_2 hosil bo'ladi. Bu reaksiya uchun qancha hajm (l, n.sh) kislorod kerak bo'ladi?
A) 8,96 B) 9,6 C) 9,2 D) 8,2
- 113.(2015) 50 ml butan va (mo'l miqdordagi) kislorod aralashmasi yondirildi. Reaksiya tugagandan so'ng reaksiyon aralashma dastlabki sharoitga keltirilganda aralashmaning hajmi 17,5 ml ga kamaygan bo'lsa, hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi kislorodning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 10 B) 61,53 C) 38,46 D) 90
- 114.(2015) Azot va metanning 60 ml aralashmasi 60 ml (mo'l miqdordagi) kislorodda yondirildi. Reaksiya tugagandan so'ng reaksiyon aralashma dastlabki sharoitga keltirilganda aralashmaning hajmi 80 ml ga teng bo'lsa, dastlabki aralashmadagi azotning hajmiy ulushini aniqlang.
A) 2/3 B) 1/4 C) 1/3 D) 3/4
- 115.(2015) Alkan tetraxlorlanganda hosil bo'lgan aralashma bug'ining vodorodga nisbatan zichligi 31,4 ga teng bo'lsa, dastlabki alkan tarkibida nechta sp^3 -gibridlangan orbitallar bor? (alkan va xlor to'liq reaksiyaga kirishgan)
A) 8 B) 4 C) 16 D) 12
- 116.(2015) 100 ml propan va (mo'l miqdordagi) kislorod aralashmasi yondirildi. Reaksiya tugagandan so'ng reaksiyon aralashma dastlabki sharoitga keltirilganda aralashmaning hajmi 70 ml ga teng bo'lsa, dastlabki aralashmaning gelyga nisbatan zichligini aniqlang.
A) 8,3 B) 9,3 C) 10,8 D) 2,8
- 117.(2015) 100 ml propan va (mo'l miqdordagi) kislorod aralashmasi : yondirildi. Reaksiya tugagandan so'ng reaksiyon aralashma dastlabki sharoitga keltirilganda aralashmaning hajmi 70 ml ga teng bo'lsa, dastlabki aralashmadagi propanning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 57,14 B) 10 C) 42,86 D) 90
- 118.(2015) Noma'lum alkanning 6 litrini to'liq yoqish uchun 32,5 litr ozon-kislorod aralashmasi ($\varphi(O_2) = 60\%$) sarflandi. Noma'lum alkanni toping.
A) propan B) butan C) metan D) etan
- 119.(2015) Noma'lum alkanning 0,45 moli noma'lum hajmdagi kislorod bilan to'liq yondirildi. Agar shu kislorod 44,8 litr ($D(H_2) = 18$) ozon-kislorod aralashmasidan olingan bo'lsa, noma'lum alkanni toping.
A) C_5H_{12} B) C_4H_{10} C) C_2H_6 D) C_3H_8
- 120.(2015) CH_4 1500°C da qizdirilganda atsetilen hosil qiladi. Agar reaksiya unumi 40%ga teng bo'lsa, olingan gazlar aralashmasidagi atsetilenning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 33,3 B) 25,0 C) 10,0 D) 14,3
- 121.(2014) 1824 yilda Vyoler qanday moddadan oksalat kislotasi olgan?
A) etilen B) atsetilen
C) ditsian D) vodorod sianid
- 122.(2014) C_5H_{16} tarkibli uglevodorodning izomerlari soni nechta?
A) 6 ta B) 7 ta C) 5 ta D) 9 ta
- 123.(2014) Alkandagi C-H bog'lar soni C-C bog'lari sonidan 4 marta ko'p bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) C_2H_6 B) C_4H_{10} C) C_3H_8 D) CH_4
- 124.(2014) Alkan molekulasida yettita birlamchi va uchta uchlamchi uglerod atomlari bo'lsa, molekuladagi to'rtlamchi uglerod atomlari sonini aniqlang.
A) 1 B) 6 C) 4 D) 2
- 125.(2014) 0,38 mol brometan ($\eta = 0,5$) olish uchun qancha (g) alkan kerak bo'ladi?
A) 14,25 B) 22,8 C) 9,12 D) 8,72
- 126.(2014) Tarkibida 16,28% vodorod va 83,72% uglerod tutgan uglevodorod monoxlorlanganda faqat birlamchi va uchlamchi uglerodga ega bo'lgan xlorli hosila hosil bo'ldi. Uglevodorod formulasi va nomini aniqlang.
A) C_5H_{12} ; n-geksan
B) C_5H_{14} ; 2-metilpentan
C) C_5H_{16} ; 3-metilpentan
D) C_5H_{18} ; 2,3-dimetilbutan
- 127.(2014) Dixloralkan molekulasida massa ulushi 0,0531 bo'lgan vodorod mavjud. Birikmaning mumkin bo'lgan struktur izomer soni nechta?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 6
- 128.(2014) B alkan to'la yondirilganda olingan mahsulotlar hajmi (suv bug' holatda) boshlang'ich alkan hajmidan o'n uch marta katta bo'lsa, B alkanning molekulyar formulasini toping.
A) C_6H_{14} B) C_3H_8 C) C_5H_{12} D) C_4H_{10}
- 129.(2014) 17,92 / uglerod (IV) oksid olishi uchun hajmi 8,96 l bo'lgan propan, metan va uglerod (IV) oksid aralashmasi mo'l kislorodda yondirildi. Aralashmadagi propanning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 75 B) 25 C) 50 D) 40

130. (2014) 8 g metanning to'liq xlorlanishi natijasida ajralgan gazni to'liq neytrallash uchun qancha (ml) 20 % li NaOH ($\rho=1,1 \text{ g/cm}^3$) eritmasi zarur bo'ladi?
A) 456 B) 265,6
C) 400 D) 363,6
131. (2014) CH_4 1500°C da qizdirilganda C_2H_2 hosil qiladi. Agar olingan gazlar aralashmasida hajm jihatdan 15% atsetilen mavjud bo'lsa, reaksiya unumi (%) toping.
A) 42,9 B) 30,0 C) 21,4 D) 25,0
132. (2013) Teng miqdordagi, tarmoqlanmagan, xlor birlamchi uglerod bilan bog'langan CH_3Cl , $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$, $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}$, $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$, $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$, $\text{C}_6\text{H}_{13}\text{Cl}$ lar aralashmasi mo'l miqdordagi natriy metalli ishtirokida to'liq Vyurs reaksiyasiga kirishishi natijasida eng ko'pi bilan necha xil modda hosil bo'lishi mumkin?
A) 15 B) 12
C) 18 D) 22
133. (2013) Teng miqdordagi, tarmoqlanmagan, xlor birlamchi uglerod bilan bog'langan CH_3Cl , $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$, $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}$, $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$, $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$, $\text{C}_6\text{H}_{13}\text{Cl}$ lar aralashmasi mo'l miqdordagi natriy metalli ishtirokida to'liq Vyurs reaksiyasiga kirishishi natijasida eng kam bilan necha xil modda hosil bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 12
C) 4 D) 18
134. (2013) Teng miqdordagi, tarmoqlanmagan, xlor birlamchi uglerod bilan bog'langan $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$, $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}$, $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$, $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$, $\text{C}_6\text{H}_{13}\text{Cl}$, $\text{C}_7\text{H}_{15}\text{Cl}$ lar aralashmasi mo'l miqdordagi natriy metalli ishtirokida to'liq Vyurs reaksiyasiga kirishishi natijasida eng ko'pi bilan necha xil modda hosil bo'lishi mumkin?
A) 15 B) 12 C) 18 D) 22
135. (2013) Teng miqdordagi, tarmoqlanmagan, xlor birlamchi uglerod bilan bog'langan $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$, $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}$, $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$, $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$, $\text{C}_6\text{H}_{13}\text{Cl}$, $\text{C}_7\text{H}_{15}\text{Cl}$ lar aralashmasi mo'l miqdordagi natriy metalli ishtirokida to'liq Vyurs reaksiyasiga kirishishi natijasida eng kam bilan necha xil modda hosil bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 12 C) 4 D) 18
136. (2013) Teng miqdordagi, tarmoqlanmagan, xlor birlamchi uglerod bilan bog'langan $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}$, $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$, $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$, $\text{C}_6\text{H}_{13}\text{Cl}$, $\text{C}_7\text{H}_{15}\text{Cl}$, $\text{C}_8\text{H}_{17}\text{Cl}$ lar aralashmasi mo'l miqdordagi natriy metalli ishtirokida to'liq Vyurs reaksiyasiga kirishishi natijasida eng ko'pi bilan necha xil modda hosil bo'lishi mumkin?
A) 15 B) 12 C) 18 D) 22
137. (2013) Teng miqdordagi, tarmoqlanmagan, xlor birlamchi uglerod bilan bog'langan $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$, $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}$, $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$, $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$, $\text{C}_6\text{H}_{13}\text{Cl}$ lar aralashmasi mo'l miqdordagi natriy metalli ishtirokida to'liq Vyurs reaksiyasiga kirishishi natijasida eng ko'pi bilan necha xil modda hosil bo'lishi mumkin?
A) 12 B) 10 C) 8 D) 16
138. (2013) Teng miqdordagi, tarmoqlanmagan, xlor birlamchi uglerod bilan bog'langan $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$, $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}$, $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$, $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$, $\text{C}_6\text{H}_{13}\text{Cl}$ lar aralashmasi mo'l miqdordagi natriy metalli ishtirokida to'liq Vyurs reaksiyasiga kirishishi natijasida eng kam bilan necha xil modda hosil bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 10
139. (2013) Bir-biriga izomer bo'lmagan uch xil monoxlorli alkanlar aralashmasi Vyurs reaksiyasiga kirishdi. Natijada $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$, $\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{CH}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lsa, dastlabki monoxlorli alkanlarning formulasi keltirilgan javobni aniqlang.
1) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{Cl}$;
2) $\text{C}(\text{CH}_3)_3(\text{CH}_2)_2\text{Cl}$;
3) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{Cl}$;
4) $\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{Cl}$;
5) $\text{CH}_3(\text{CH}_2)\text{CH}(\text{Cl})\text{CH}_3$;
6) $\text{CH}_2(\text{Cl})\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
A) 1,2,5 B) 1,3,4
C) 2,5,6 D) 3,4,6
140. (2013) Bir-biriga izomer bo'lmagan uch xil monoxlorli alkanlar aralashmasi Vyurs reaksiyasiga kirishdi. Natijada $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$, $\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$ va $\text{CH}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lsa, dastlabki monoxlorli alkanlarning tarkibidagi (a) birlamchi, (b) ikkilamchi, (c) uchlamchi uglerod atomlari sonini aniqlang.
A) a-8; b-2; c-4 B) a-9; b-2; c-4
C) a-9; b-3; c-3 D) a-8; b-3; c-3
141. (2013) Bir-biriga izomer bo'lmagan uch xil monoxlorli alkanlar aralashmasi Vyurs reaksiyasiga kirishdi. Natijada $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$, $\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$ va $\text{CH}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lsa, dastlabki monoxlorli alkanlarning tarkibidagi (a) birlamchi, (b) to'rtlamchi, (c) uchlamchi uglerod atomlari sonini aniqlang.
A) a-9; b-0; c-3 B) a-8; b-0; c-3
C) a-8; b-1; c-3 D) a-9; b-1; c-3
142. (2012) Agar alkan tarkibidagi C atomlari orasidagi bog'lar soni uglerod-vodorod bog'lari sonidan 6 marta kam bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) C_2H_6 B) C_5H_{12}
C) C_3H_8 D) C_4H_{10}
143. (2012) Agar alkan tarkibidagi uglerod-uglerod bog'lar soni uglerod-vodorod bog'lari sonidan 10 ta kam bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) C_7H_{16} B) C_6H_{14} C) C_4H_{12} D) C_5H_{12}
144. (2012) Agar alkan tarkibidagi uglerod atomlari orasidagi bog'lar soni uglerod-vodorod bog'laridan 7 taga kam bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) C_4H_{10} B) C_6H_{14} C) C_5H_8 D) C_5H_{12}
145. (2012) Agar alkan tarkibidagi C atomlari orasidagi bog'lar soni uglerod-vodorod bog'lari sonidan 3 marta kam bo'lsa va bu moddani xlorlanishidan faqat bitta monoxlorli hosila hosil bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) *propan* B) *n-butan*
C) *2,3-dimetilbutan* D) *2,2-dimetilpropan*
146. (2012) Alkan tarkibidagi C atomlari orasidagi bog'lar soni uglerod-vodorod bog'laridan 11 ta kam bo'lsa va bu moddani xlorlanishidan 1 ta monoxlorli hosila hosil bo'lsa, moddani aniqlang.
A) *3,3-dimetilpentan*
B) *2,2,3,3-tetrametilbutan*
C) *2,3-dimetiibutan*
D) *2,2-dimetilpropan*

147. (2012) To'yingan uglevodorodning uglerod-uglerod bog'ida uglerod-vodorod bog'idan 6 ta kam bog' bo'lsa, 5,6 l (n.sh.) shunday uglevodorodni yoqish uchun qancha hajm (l, n.sh.) havo kerak? ($\varphi(\text{O}_2) = 20\%$)
A) 140 B) 120 C) 56 D) 80
148. (2012) C_4H_{10} va C_5H_{12} larni xlor birlamchi uglerod atomlari bilan bog'langan monoxorli izomerlarini sonlarini nisbatini aniqlang?
A) 1:3 B) 1:2 C) 3:5 D) 1:1
149. (2012) C_3H_8 ni dixerli va C_5H_{12} ni monoxorli izomerlari sonlarini nisbatini aniqlang?
A) 1:3 B) 1:2 C) 3:5 D) 1:1,5
150. (2012) C_3H_8 ni dixerli izomerlari bilan C_4H_{10} ni xlor birlamchi uglerod atomlari bilan bog'langan monoxorli izomerlari sonlarini nisbatini aniqlang?
A) 1:1 B) 1:1,5 C) 1,5:1 D) 2:1
151. (2012) $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$ va $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$ larni xlor birlamchi uglerod atomlari bilan bog'langan izomerlarini sonlarini nisbatini aniqlang?
A) 1,5:1 B) 1:2 C) 2:1 D) 1:1,5
152. (2012) $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{Cl}$ ni va $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}_2$ ni izomerlari sonlarini nisbatini aniqlang?
A) 1,5:1 B) 1:2 C) 2:1 D) 1:1,5
153. (2012) $\text{C}_4\text{H}_9\text{Cl}$ ni xlor birlamchi uglerod atomlari bilan bog'langan izomerlari va $\text{C}_3\text{H}_7\text{Cl}_2$ ni izomerlari sonlarini nisbatini aniqlang?
A) 1:2 B) 1:1,5 C) 1,5:1 D) 2:1
154. (2012) CH_3Cl , $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$ va $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$ tarkibli moddalar natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda necha xil mahsulot hosil bo'ladi?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
155. (2012) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$, $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$ va $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$ tarkibli moddalar natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda necha xil mahsulot hosil bo'ladi?
A) 6 B) 5 C) 4 D) 3
156. (2012) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$, $\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$ va $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$ tarkibli moddalar natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda necha xil mahsulot hosil bo'ladi?
A) 6 B) 5 C) 4 D) 3
157. (2012) Agar ikki xil alkanlarning monoxorli hosilalari natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lgan bo'lsa, shu reaksiyada qatnashgan galogeno uglevodorodlarni ko'rsating?
1) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{Cl}$
2) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{Cl})\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
3) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{Cl}$
4) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{Cl})\text{CH}_3$
A) 1,2 B) 1,3 C) 1,2,3,4 D) 2,4
158. (2012) Bir-biriga izomer bo'lgan ikki alkanning monoxorli hosilalari natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli modda ham hosil bo'lgan bo'lsa, yana qanday uglevodorodlar hosil bo'lishi mumkin?
1) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
2) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2$
3) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
4) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
A) 1,2 B) 1,2,3,4 C) 2,3 D) 3,4
159. (2012) Agar ikki xil alkanlarning monoxorli hosilalari natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiyada qatnashgan galogeno uglevodorodlar tarkibidagi to'rtlamchi(a), ikkilamchi(b) va birlamchi(c) uglerod atomlari sonini aniqlang?
A) a-2; b-0; c-8 B) a-1; b-1; c-7
C) a-1; b-1; c-8 D) a-1; b-0; c-8
160. (2012) Agar ikki xil alkanlarning monoxorli hosilalari natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lgan bo'lsa, shu reaksiyada qatnashgan galogeno uglevodorodlarni ko'rsating?
1) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{Cl}$
2) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{Cl}$
3) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{Cl}$
4) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{Cl})\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_3$
A) 1,2 B) 2,3 C) 1,3,4 D) 3,4
161. (2012) Bir-biriga izomer bo'lgan ikki alkanning monoxorli hosilalari natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli modda ham hosil bo'lgan bo'lsa, yana qanday uglevodorodlar hosil bo'lishi mumkin?
1) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$
2) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
3) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
4) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2$
A) 1,4 B) 1,2,3,4 C) 2,3 D) 3,4
162. (2012) Agar ikki xil alkanlarning monoxorli hosilalari natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_4\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lgan bo'lsa, shu reaksiyada qatnashgan galogeno uglevodorodlarni ko'rsating?
1) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_2)_2\text{Cl}$
2) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{Cl}$
3) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{Cl})\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
4) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{Cl}$
A) 1,4 B) 2,3 C) 1,2,3,4 D) 1,2
163. (2012) Bir-biriga izomer bo'lgan ikki alkanning monoxorli hosilalari natriy metalli ishtirokida Vyurts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli modda ham hosil bo'lgan bo'lsa, yana qanday uglevodorodlar hosil bo'lishi mumkin?
1) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
2) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_4\text{CH}(\text{CH}_3)_3$
3) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
4) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_4\text{C}(\text{CH}_3)_3$
A) 1,2 B) 1,2,3,4 C) 2,3 D) 3,4

164. (2012) Agar ikki xil alkanlarning monoxlorli hosilalari natriy metalli ishtirokida Vuyrts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_4\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiyada qatnashgan galogeno uglevodorodlar tarkibidagi uchlamchi(a), ikkilamchi(b) va birlamchi(c) uglerod atomlari sonini anqilang?
 A) a-2; b-2; c-7 B) a-2; b-1; c-8
 C) a-2; b-1; c-9 D) a-2; b-0; c-9
165. (2012) Agar ikki xil alkanlarning monoxlorli hosilalari natriy metalli ishtirokida vuyrts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ va $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_4\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli moddalar ham hosil bo'lgan bo'lsa, shu reaksiyada qatnashgan uglevodorodlarni galogenli hosilalarini aniqlang?
 1) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_2)_2\text{Cl}$
 2) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{Cl}$
 3) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)(\text{Cl})\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 4) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{Cl}$
 A) 1,4 B) 2,3 C) 1,2,3,4 D) 1,2
166. (2012) Bir-biriga izomer bo'lgan ikki alkan natriy metalli ishtirokida vuyrts reaksiyasiga kirishganda $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$ tarkibli modda ham hosil bo'lgan bo'lsa, yana qanday uglevodorodlar hosil bo'lishi mumkin?
 1) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 2) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_4\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 3) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 4) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_4\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 A) 1,2 B) 1,2,3,4 C) 2,3 D) 3,4
167. (2012) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{Cl})\text{CH}_3$, $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{Cl}$ va $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)(\text{Cl})\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$ larni aralashmasiga natriy metalli ta'sir ettirilganda qanday alkanlar hosil bo'ladi?
 1) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 2) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 3) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 4) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 5) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 6) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 7) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 8) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 9) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 10) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 A) 1,2,4,7,8,9 B) 1,2,5,6,8,10
 C) 1,2,3,5,6,10 D) 1,2,5,7,8,10
168. (2012) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{Cl})\text{CH}_3$, $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$ va $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)(\text{Cl})\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$ larni aralashmasiga natriy metalli ta'sir ettirilganda qanday alkanlar hosil bo'ladi?
 1) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 2) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 3) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 4) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 5) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 6) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 7) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_3$
 8) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 9) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_2\text{CH}_3$
 10) $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)_2(\text{CH}_2)_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_3)_2$
 A) 1,2,4,7,8,9 B) 1,2,3,7,8,10
 C) 1,2,3,6,7,10 D) 1,2,5,7,8,10
169. (2011) Xloroform deganda qanday birikmani tushunasiz?
 A) tetraxlor metan B) metilxlorid
 C) dixlorometan D) trixlor metan
170. (2011) ... alkanlar qatoriga kiradi.
 A) Siklogeksan, propan, benzol, toluol
 B) Etan, atsetilen, etilen, izopren
 C) Metan, pentan, propanal, 2,2-dimetilpentan
 D) Etan, dekan, 2,3,3-trimetiloktan, 2,2-dimetilpentan
171. (2011) C_6H_{14} tarkibli uglevodorodning izomerlari soni nechta?
 A) 5 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 3 ta
172. (2011) Asosiy zanjirida 4 ta uglerod tutgan to'yingan uglevodorodning molekular massasi 114 ga teng bo'lsa, uni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.
 A) 2,2,3,3-tetrametilbutan
 B) 3-etil-2,3-dimetilbutan
 C) 1,1,2,2-tetrametilbutan
 D) 2-etil-3,3-dimetilbutan
173. (2011) 22,8 g 2,2,4-trimetilpentan to'liq yondirilganda hosil bo'lgan uglerod (IV) oksidni yuttirish uchun 15% li NaOH eritmasidan ($\rho=1,1 \text{ g/cm}^3$) qancha (ml) kerak bo'ladi? (Eritmada nordon tuz hosil bo'ladi)
 A) 290 B) 405 C) 308 D) 388
174. (2011) 15,2 g metan va etandan iborat aralashma yondirilganda 22,4 l (n.sh.) CO_2 hosil bo'lsa, reaksiyada necha gramm suv hosil bo'ladi?
 A) 18,8 B) 28,8 C) 21,6 D) 7,2
175. (2011) 1/3 mol metan yorug'lik ta'sirida xlorlanganda ajralgan gaz 280 g 20% li kaliy ishqorini neytrallashga yetarli bo'lsa, hosil bo'lgan galogenli hosila formulasi toping
 A) CCl_4 B) CH_3Cl C) CH_2Cl_2 D) CHCl_3
176. (2010) C_2H_6 va C_4H_{10} birikmalarida bir xil miqdordagi uglerod bilan boglangan vodorod massalari orasidagi nisbat nechaga teng?
 A) 2:5 B) 6:5 C) 9:5 D) 3:5
177. (2010) Qaysi javobda to'yingan uglevodorodlar keltirilgan?
 A) etilen, propen, izopren, geksan
 B) propen, buten-1, asetilen, geksan
 C) butan, pentan, oktan, dekan
 D) propen, izobutilen, etilen, butilen
178. (2010) Tarkibi C_5H_{12} bo'lgan va asosiy zanjirida to'rtta uglerod atomi bo'lgan izomer uglevodorodlar soni nechta bo'ladi?
 A) 4 B) 5 C) 6 D) 3
179. (2010) 2-metilpentan, geksan va 2,2-dimetilbutan birikmalari qaysi turdagi izomeriyaga kiradi?
 A) zanjir
 B) qo'sh bog'ning holat
 C) uch bog'ning holat
 D) funksional guruhning holat
180. (2010) C_5H_{12} tarkibli uglevodorodni xlorlash natijasida faqat yagona monoxlorli mahsulot hosil bo'lsa, u qanday nomlanadi?
 A) pentan B) 2,2-dimetilbutan
 C) 2-metilpentan D) 2,2-dimetilpropan

- 181.(2010) 2-brom-2-metilpropan va etilbromid aralashmasi mo'l miqdordagi natriy metalli bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan moddalarni aniqlang.
1) n- butan;
2) 2,2-dimetilbutan;
3) 2,2,3-trimetilbutan;
4) 2,2,3,3-tetrametilbutan;
5) 3,3-dimetilbutan
A) 1, 2, 4 B) 3, 5, 6 C) 2, 3, 5 D) 1, 3, 4
- 182.(2010) 1:2:3 mol nisbatda olingan karbonat anhidrid, propan va azot(I) oksiddan iborat 0,6 mol aralashmadagi kislorod atomining massasini (g) hisoblang.
A) 4,8 B) 3,2 C) 5 D) 8
- 183.(2010) 1 mol metan quyosh nuri ishtirokida bromlanganda brommetan, dibrommetan, tribrommetan va tetrabrommetanlar mos ravishda 1:2:3:4 mol nisbatda hosil bo'lsa, ushbu reaksiyada sarflangan bromning massasini (g) aniqlang.
A) 160 B) 320 C) 480 D) 640
- 184.(2010) 0,6 mol etanni quyosh nuri ishtirokida xlorlash natijasida miqdoriy nisbatlari mos ravishda 1:2:3 bo'lgan 1,2-dixloretan, 1,1,2-trixloretan va 1,1,2,2-tetraxloretanlardan iborat aralashma hosil bo'ldi. Ushbu reaksiyada sarflangan galogennin hajmini (l, n.sh.) aniqlang.
A) 22,4 B) 44,8 C) 67,2 D) 89,6
- 185.(2010) Etan va kislorod aralashmasining 560 ml miqdori yondirildi. Suv bug'lari kondensasiyalanganidan so'ng, mahsulot hajmi 350 ml gacha kamaydi (hajmlar bir xil sharoitda o'lgangan). Boshlangich aralashmadagi etanning hajmiy ulushini (%) hisoblang
A) 44,8 B) 15 C) 18,2 D) 26
- 186.(2010) Metanning miqdori propannikidan 3 marta ko'p bo'lgan metan, propan va yetarli miqdordagi kisloroddan iborat aralashma yondirilganda, hosil bo'lgan gazlar aralashmasini hajmi boshlangich aralashma hajmidan 2,24 l (n.sh.) ga ortgan bo'lsa, boshlangich aralashmadagi kislorodning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 1,1 B) 0,6 C) 0,4 D) ,5
- 187.(2010) Metanni massa ulushi 16 % bo'lgan metan va kislorod aralashmasi 100°C da to'liq ta'sirlashgandan keyingi aralashma zichligini aniqlang.
A) 1,428 B) 1,758 C) 1,23 D) 1,96
- 188.(2010) Noma'lum uglevodorod bug'ining 10 litrini to'la yondirish uchun 125 l kislorod sarf bo'lsa. Uglevodorodlarni aniqlang.
1) 2,4-dimetilgeksan;
2) 2,2,3-trimetilpentan;
3) 2,2,3,3-tetrametilbutan;
4) izobutan;
5) 2,2,3-trimetilgeksan.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 5
- 189.(2010) 1-brom-2-metilpropan va alkilbromid mo'l miqdorda olingan natriy metalli bilan reaksiyaga kirishganda massasi 11,4 g bo'lgan faqat bitta organik modda va 20,6 g natriy bromid hosil bo'ldi. Alkilbromidning nomini aniqlang.
A) butilbromid
B) izobutilbromid
C) ikkilamchibutilbromid
D) uchlamchibutilbromid

43

Sikloalkanlar.

01. C_8H_{16} formulaga turli sikloparafinlardan qanchasi to'g'ri keladi?
A) 6 B) 2 C) 4 D) 5
02. C_5H_{10} formulaga turli sikloparafinlardan qanchasi to'g'ri keladi?
A) 6 B) 2 C) 4 D) 5
03. Siklopentan tarkibidagi uglerod atomlarining gibridlanish turi qanday?
A) sp B) $sp^3 d$ C) sp^2 D) sp^3
04. Sikloalkanlar molekulasida uglerod atomlari qanday gibridlangan holatda bo'ladi?
A) sp B) sp^3 C) sp^2 D) $sp^3 d$
05. Sikloalkanning metanga nisbatan zichligi 3,5 ga teng bo'lsa, modda formulasini toping.
A) C_4H_8 B) C_5H_{12} C) C_4H_{10} D) C_5H_{10}
06. Sikloalkan bug'larining azotga nisbatan zichligi 3 ga teng bo'lsa, uning nomini toping
A) siklopropan B) siklopentan
C) siklogeksan D) siklooktan
07. Sikloalkan bug'larining azotga nisbatan zichligi 2,5 ga teng. Uglevodorodni toping.
A) siklopropan B) siklopentan
C) siklogeksan D) siklooktan
08. Metilsiklobutan olish uchun qaysi moddaga rux metalini ta'sir ettirish kerak?
A) 1,4-dixlorbutan B) 1,3-dixlorbutan
C) 1,2-dixlorbutan D) 1,4-dixlorpentan
09. Siklobutan olish uchun qaysi moddaga rux metalini ta'sir ettirish kerak?
A) 1,4-dixlorbutan B) 1,3-dixlorbutan
C) 1,2-dixlorbutan D) 1,1-dixlorbutan
10. 1,1-dimetilsiklopropan olish uchun qaysi moddaga rux metalini ta'sir ettirish kerak?
A) 2,3-dixlor-2-metilbutan
B) 1,3-dixlor-2-metilbutan
C) 1,4-dixlor-2-metilbutan
D) 1,3-dixlor-3-metilbutan
11. Metilsiklopropan olish uchun qaysi moddaga rux metalini ta'sir ettirish kerak?
A) 1,4-dixlorbutan B) 1,3-dixlorbutan
C) 1,2-dixlorbutan D) 1,1-dixlorbutan

12. 1,3-dimetilsiklobutanni quyidagi moddalarning qaysi biridan olish mumkin?
 A) 2-metil-1,4-dibrompentan
 B) 2,3-dimetil-2,4-dixlorbutan
 C) 2,4-dixlorgeksan
 D) 2-metil-2,5-dixlorpentan
13. Qaysi moddaning rux bilan reaksiyasi natijasida etil-siklopropan hosil bo'ladi?
 A) 1,3-dibrom-2-metilbutan
 B) 1,5-dibrompentan
 C) 1,2-dibrompentan
 D) 1,3-dibropentan
14. Massasi 168 g metilsiklopentan hosil qilish uchun mo'l miqdorda olingan rux bilan qaysi moddadan qanchasi reaksiyaga kirishishi kerak?
 A) 2,5-dibromgeksan, 328 gr
 B) 2-bromgeksan, 249 gr
 C) 1,5-dibrom-2-metilpentan, 488 gr
 D) 1,4-dibrom-2-metilpentan, 249 gr
15. 25,2 g siklopropan hosil qilish uchun qaysi dibrom alkandan necha gramm miqdori rux metali bilan ta'sirlashishi kerak?
 A) 1,3-dibrompropan; 121,2;
 B) 1,2-dibrompropan; 121,2;
 C) 2,2-dibrompropan; 60,6;
 D) 1,3-dibrombutan; 60,6;
16. 49 g siklopentan hosil qilish uchun qaysi dixlor alkandan necha gramm miqdori rux metali bilan ta'sirlashishi kerak?
 A) 1,5-dixlorpentan; 98,7;
 B) 1,4-dixlorpentan; 98,7
 C) 1,3-dixlorpentan; 49,35;
 D) 2-metil-2,4-dixlorbutan; 148;
17. Sikloalkanlarga qaysi reaksiya xos?
 A) polikondensatlanish, gidratlanish, gidrogenlanish
 B) gidrogenlanish, degidrogenlanish, galogenlash
 C) eterifikasiya, polikondensatlanish, oksidlanish
 D) gidrogenlanish, gidratlanish, degidratlanish
18. 3,9 g benzol katalizator ishtirokida siklogeksanga qaradar gidrogenlandi. Bu reaksiyada 1,68 l vodorod sarflangan bo'lsa, reaksiya unumi (n.sh.) qanchaga teng?
 A) 80 B) 75 C) 65 D) 50
19. 49 g metilsiklogeksanni katalitik degidrogenlab toluol olishda qancha (l) vodorod ajralishini hisoblang. Reaksiya unumi nazariyaga nisbatan 75% ni tashkil etadi.
 A) 22,4 B) 25,2 C) 11,2 D) 30,4
20. 49 g metilsiklogeksan katalitik degidrogenlangan. Normal sharoitda bu reaksiyada necha litr vodorod ajralib chiqadi? Shu reaksiya unumi 75% bo'lganda, qancha vodorod olish mumkin?
 A) 33,6 va 25,2 B) 67,2 va 50,4
 C) 22,4 va 16,8 D) 44,8 va 33,6
21. 8,4 g siklogeksan to'liq yonishi uchun necha litr (n. sh. da) kislorod sarf bo'ladi?
 A) 22,4 B) 2,24 C) 20,16 D) 201,6
22. 7 g sikloalkan yonganda 22 g CO₂ hosil bo'lsa, reaksiyada qatnashgan kislorod hajmini (n.sh.) toping.
 A) 16,8 l B) 15,2 l C) 14,8 l D) 13,8 l
23. 5,6 g siklobutan to'liq yonishi uchun necha litr (n.sh.) kislorod sarf bo'ladi?
 A) 2,24 B) 22,4
 C) 13,44 D) 8,96
24. 14 g sikloalkan yonganda, 33,6 l (n.sh) kislorod sarf bo'ladi. Qancha uglerod (IV) oksid hosil bo'lishini aniqlang.
 A) 33,6 l B) 22,4 l C) 44,8 l D) 21,2 l
25. 7 g sikloalkan yondirilganda 22 g karbonat angidrid hosil bo'ldi. Normal sharoitda o'changan kisloroddan necha litr sarflandi?
 A) 22,4 B) 15,8 C) 16,8 D) 20,4
26. Bir hajm bug' holatidagi sikloalkanni yondirish uchun 9 hajm kislorod sarflangan. Shu sikloalkanni aniqlang.
 A) siklopropan B) siklobutan
 C) siklopentan D) siklogeksan
27. N.sh.da bug'larini yondirishga 6 marta ko'p hajmda kislorod sarflanadigan sikloalkanning formulasi ni ko'rsating.
 A) C₄H₈ B) C₅H₁₀ C) C₃H₆ D) C₆H₁₂
28. 12,6 g sikloalkan yonganda 39,6 g CO₂ hosil bo'lsa, reaksiyada qatnashgan kislorod hajmini (l. n.sh.) toping.
 A) 22,4 B) 33,6 C) 44,8 D) 30,24
29. Vodorodga nisbatan zichligi 14,5 ga teng bo'lgan metan va siklopropandan iborat 17,92 l aralshmani to'la yonishidan necha l karbonat angidrid hosil bo'ladi.
 A) 22,4 B) 33,6 C) 44,8 D) 35,84
30. Geliyga nisbatan zichligi 12,2 ga teng bo'lgan propan va siklobutandan iborat 0,5 mol aralshmani to'la yonishidan necha g suv hosil bo'ladi.
 A) 54 B) 36 C) 18 D) 27
31. (2019) Quyidagi qaysi modda tarkibida birlamchi uglerod atomlari soni uchlamchi uglerod atomlari soniga teng, ikkilamchi va to'rtlamchi uglerod atomlari mavjud emas?
 A) 2,3-dimetilbutan
 B) 1,2,3,4-tetrametilsiklobutan
 C) 1,3,5-trimetilbenzol
 D) 1,2,4-trimetilsiklogeksan
32. (2019) Dixlorsikloalkan tarkibida 6 ta H atomi mavjud bo'lsa, uning siklik izomerlari soni eng ko'pi bilan nechta bo'lishi mumkin? (Fazoviy izomerlar hisobga olinmasin)
 A) 9 B) 8 C) 5 D) 7
33. (2019) 11,4 g etan va siklopropan aralashmasining hajmi 6,72 litr (n.sh) bo'lsa, aralashmaga maksimal qancha (l, n.sh.) xlor birikishi mumkin?
 A) 1,12 B) 3,36 C) 4,48 D) 2,24
34. (2019) Sikloalkan molekulasida 4 ta birlamchi va 1 ta to'rtlamchi uglerod atomlari mavjud bo'lsa, uchlamchi uglerod atomlari sonini aniqlang.
 A) 0 B) 3 C) 2 D) 1
35. (2019) 1,25 mol sikloalkan yondirilganda 112,5 g suv hosil bo'ldi. Sikloalkan izomerlari sonini hisoblang. (fazoviy izomerlar hisobga olinmasin)
 A) 5 B) 6 C) 7 D) 4

36. (2019) 27 g 1,3-dibrombutanga noma'lum metal ta'sir ettirilganda 23 g tuz olindi. Metalni aniqlang.
A) Ca B) Li C) Zn D) Mg
37. (2018) n-Butanning dixlorli izomerlariga magniy metali ta'sir ettirib jami necha xil sikloalkan olish mumkin.
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
38. (2018) n-pentanning barcha dixlorli izomerlariga Mg metali ta'sir ettirib jami necha xil sikloalkan olish mumkin?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 6
- 39.72. (2018) Siklogeksan tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajalari yig'indisini aniqlang.
A) -4 B) -10 C) -12 D) +3
40. (2015) 1,4-dixlor-5-metilgeksandan Gustavson usuli bo'yicha qanday sikloalkan olinadi?
A) 1,2,3-trimetilsiklobutan
B) izopropilsiklobutan
C) izopropilsiklopropan
D) etilsiklopropan
41. (2015) Digaloidli birikmalarga rux ta'sir ettirib sikloalkanlarni olgan olimni aniqlang.
A) A.M. Butlerov B) F.E. Favorskiy
C) A. Vyurs D) G.G. Gustavson
42. (2014) Gustavson usuli bo'yicha 1,3-dixlor-2,2-dimetilpropandan qanday sikloalkan olinadi?
A) 1,1-dimetilsiklopropan
B) 1,1-dimetilsiklobutan
C) izopropilsiklobutan
D) metilsiklobutan
43. (2014) Gustavson usuli bo'yicha 1,5-dixlor-2,3,3-trimetilpentandan qanday sikloalkan olinadi?
A) metilsiklopentan
B) izopropilsiklopropan
C) 1,1,2-trimetilsiklopentan
D) 1-metil-2-etilsiklopropan
44. (2014) Gustavson usuli bo'yicha 2,6-dixloroktandan qanday sikloalkan olinadi?
A) 1-metil-2-etilsiklopentan
B) etilsiklogeksan
C) izopropilsiklopentan
D) 1,1-dimetilsiklogeksan
45. (2014) Sikloalkanlar gomologik qatorining umumiy formulasini (1, 2, 3, 4) va kislorodda oksidlanish reaksiyasi tenglamasidagi kislorodning koeffitsiyentini (a, b, c, d) toping (reaksiya mahsuloti sifatida CO₂ va H₂O hosil bo'ldi deb hisoblang).
1) C_nH_{2n+2}; 2) C_nH_{2n-2};
3) C_nH_{2n}; 4) C_nH_{2n+1};
a) 1,5 n; b) n;
c) 1,5 n+0,5; d) n+1
A) 1; c B) 4; c C) 3; a D) 1; a
46. (2014) Uglevodorod bromlanganda (D(O₂) = 5,094) bromli hosila olindi. Uglevodorodni aniqlang.
A) Siklopropan B) Siklopentan
C) Siklogeksan D) Siklobutan
47. (2013) Aktiv metall ta'sirida sikloalkan hosil qiluvchi C₅H₁₀Cl₂ tarkibli necha xil digalogenli alkan bo'lishi mumkin?
A) 6 B) 7
C) 8 D) 9
48. (2013) Tarkibi C₆H₁₂Cl₂ bo'lgan moddalar aktiv metall ta'sirida necha xil sikloalkan hosil qilishi mumkin?
A) 5 B) 6 C) 8 D) 9
49. (2013) Aktiv metall ta'sirida, asosiy zanjirda 4 ta uglerod atomi bo'lgan, sikloalkan hosil qiluvchi C₆H₁₂Cl₂ tarkibli necha xil digalogenli alkan bo'lishi mumkin?
A) 8 B) 15 C) 5 D) 7
50. (2013) Tarkibi C₆H₁₂Cl₂ bo'lgan, moddalar aktiv metall ta'sirida necha xil, asosiy zanjirda 4 ta uglerod atomi bo'lgan, sikloalkan hosil qilishi mumkin?
A) 3 B) 4 C) 6 D) 12
51. (2013) Tarkibi C₆H₁₂Cl₂ bo'lgan, moddalar aktiv metall ta'sirida necha xil, asosiy zanjirda 3 ta uglerod atomi bo'lgan, sikloalkan hosil qilishi mumkin?
A) 5 B) 4 C) 6 D) 12
52. (2013) Tarkibi C₆H₁₂Cl₂ bo'lgan, moddalar aktiv metall ta'sirida necha xil sikloalkan hosil qilishi mumkin?
A) 10 B) 8 C) 6 D) 12
53. (2013) Aktiv metall ta'sirida, asosiy zanjirda 3 ta uglerod atomi bo'lgan, sikloalkan hosil qiluvchi C₆H₁₂Cl₂ tarkibli necha xil digalogenli alkan bo'lishi mumkin?
A) 8 B) 15 C) 13 D) 7
54. (2013) Aktiv metall ta'sirida sikloalkan hosil qiluvchi, molyar massasi 230 gr/mol bo'lgan necha xil dibromalkan bo'lishi mumkin?
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9
55. (2013) Molyar massasi 230 gr/mol bo'lgan dibromalkan izomerlari aktiv metall ta'sirida necha xil sikloalkan hosil qilishi mumkin?
A) 5 B) 6 C) 8 D) 9
56. (2013) Aktiv metall ta'sirida, asosiy zanjirda 4 ta uglerod atomi bo'lgan, sikloalkan hosil qiluvchi, molyar massasi 244 gr/mol bo'lgan necha xil dibromalkan bo'lishi mumkin?
A) 8 B) 15 C) 5 D) 7
57. (2013) Aktiv metall ta'sirida, asosiy zanjirda 3 ta uglerod atomi bo'lgan, sikloalkan hosil qiluvchi, molyar massasi 244 gr/mol bo'lgan necha xil dibromalkan bo'lishi mumkin?
A) 8 B) 15 C) 13 D) 7
58. (2012) 15 l siklobutanni yondirish uchun sarflanadigan kislorod va havoning hajmini (l) toping.
A) 90, 450 B) 50, 250 C) 45, 225 D) 60, 300
59. (2010) 21 g sikloalkan yondirilganda 33,6 l CO₂ hosil bo'lgan bo'lsa, sarflanган kislorodning hajmini (l) toping.
A) 44,8 B) 56 C) 50,4 D) 72
60. (2012) Bir hajm sikloalkan yonishi uchun olti hajm kislorod sarf bo'lsa, 4,48 l (n.sh.) shunday sikloalkanni yoqish uchun 15% ozon aralashgan kisloroddan necha litr (n.sh.) kerak bo'ladi?
A) 25 B) 20,57 C) 27 D) 26,88
61. (2011) Siklogeksan izomerlari keltirilgan qatomi ko'rsating.
A) siklogeksan; siklobutan; siklogeksen
B) etilsiklobutan; metilsiklopentan; 2,3-dimetilbuten-2
C) 2-metilpenten-1; pentin-1; pentadiyen-1,3
D) geksin-1; metilsiklopentan; 2-metilpentadiyen-1,4
62. (2010) Siklogeksan qanday reaksiyalarga kirishadi?
1) birikish; 2) polimerlanish;
3) oksidlanish; 4) o'rin olish;
5) degidrogenlanish; 6) polikondensatlanish.
A) 1 va 2 B) 2 va 5 C) 2,3 va 5 D) 3,4 va 5

01. Etilen qatori uglevodorodining vodorodga nisbatan zichligi 28 ga teng. Bu moddaning molekulyar formulasini aniqlang.
A) C_6H_{12} B) C_4H_8
C) C_3H_6 D) C_5H_{10}
02. Etilen qatori uglevodorodining geliyga nisbatan zichligi 7 ga teng. Bu moddaning molekulyar formulasini aniqlang.
A) C_2H_4 B) C_4H_8
C) C_3H_6 D) C_5H_{10}
03. Quyidagilardan qaysi biri alkenlar oilasiga kirmaydi?
A) C_2H_4 B) C_3H_6 C) C_4H_8 D) C_6H_{14}
04. Quyidagilardan qaysi biri alkenlar oilasiga kirmaydi?
A) C_2H_4 B) C_3H_6 C) C_6H_{12} D) C_6H_6
05. Tarkibi C_6H_{12} bo'lgan modda ... bo'ladi.
A) aren yoki alkadien
B) alken yoki alkin
C) sikloalkan yoki alken
D) alkan yoki sikloalkan
06. Tarkibi C_2H_4 bo'lgan modda ... bo'ladi.
A) aren yoki alkadien
B) alken
C) sikloalkan yoki alken
D) alkan
07. Alkenlarni yana qanday nomlash mumkin?
A) naftenlar B) etilen qatori
C) parafinlar D) diyenlar
08. Quyidagi moddani nomlang.
 $CH_3CH(CH_3)CHC(C_2H_5)CH_3$
A) 2-metil-4-etilpenten-2
B) 2-metil-4-etilpenten-3
C) 2,4-dimetilgekseen-2
D) 2,4-dimetilgekseen-3
09. Quyidagi moddani nomlang.
 $CH_3CH(CH_3)CHC(CH_3)CH_3$
A) 2-metil-4-etilpenten-2
B) 2-metil-4-etilpenten-3
C) 2,4-dimetilgekseen-2
D) 2,4-dimetilpenten-2
10. Quyidagi formulalar orasidan 1-brom-2-etil-4-metilpenten-1 ni toping.
A) $CH_3Br(CH)CH_2CH(C_2H_5)CH_3$
B) $CH(Br)C(CH_3)CH(C_2H_5)CH_2CH_3$
C) $CH_3CH(C_2H_5)CH_2CH(Br)CH_3$
D) $CH(Br)C(C_2H_5)CH_2CH(CH_3)CH_3$
11. Bir hajmli geksen va propan berilgan. Propanni massasi 11 gramm. Geksenni massasi (g) ni toping.
A) 21 B) 12,5 C) 13,75 D) 27,5
12. Bir hajmli penten va propan berilgan. Propanni massasi 22 gramm. Geksenni massasi (g) ni toping.
A) 21 B) 35 C) 28 D) 17,5
13. Etilen qatori uglevodorodiga xlarning ta'sir etishidan hosil bo'lgan birikmaning nisbiy molekulyar massasi 113 ga teng. Reaksiyaga kirishgan alkenning formulasini toping.
